

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**T-29 son**  
**05.02.2021 y.**  
**sh.**

**Buyruqdan ko'chirma**

**Samarqand**

2020-2021 o'quv yili uchun institut talabalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalarini (Navoiy, Beruniy, Ulug'bek, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Islom Karimov) tayinlash hamda O va O'MTVni 01.02.2021 yildagi 56-sonli buyrug'i ijrosi haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevraldagi "O'zbekistonning o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi PF-555-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 13 oktyabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida" 226-son qaroriga muvofiq 2020/2021 o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatining oxirgi ikki kursida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarga nomli davlat stipendiyalarini tayinlash hamda O va O'MTVni 01.02.2021 yildagi 56-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 21 yanvardagi 37-sonli buyrug'iga muvofiq tuzilgan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni saralash bo'yicha tanlov komissiyasining 2021 yil 1 fevraldagi bayonnomasiga asosan iqtidorli talabalarga «2020/2021 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari (Beruniy, Islom Karimov) 2,6-ilovalarga muvofiq tayinlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 21 yanvardagi 37-sonli buyrug'ining 2 va 6-ilovalariga asosan, 405-arxitektura guruhi talabasi Agamyana Sabrina Yurevna va 405-Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish guruhi talabasi Hamzaeva Charos Hamza qiziga 2020 yil 1 sentyabrdan 2020/2021 o'quv yili davomida Beruniy Davlat stipendiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 4 yanvardagi 5-sonli buyrug'ining 2 ilovasiga muvofiq 2020 yil 1 sentyabrdan 2020/2021 o'quv yili davomida Islom Karimov Davlat stipendiyasi 1 328 207 (bir million uch yuz yigirma sakkiz ming ikki yuz yetti) so'm miqdorida hamda 403-arxitektura guruhi talabasi Alijanova Matluba SHakirjon qiziga 2020 yil 1 sentyabrdan 2020/2021 o'quv yili davomida Islom Karimov Davlat stipendiyasi 1 328 207 (bir milion uch yuz yigirma sakkiz ming ikki yuz yetti) so'm miqdorida tayinlansin. *Mas'ullar: Mvall bo'yicha prorektor A.Radjabov, bosh hisobchi U.Berdiqulov.*
3. O'zbekiston Respublikasi Beruniy Davlat stipendiyasi 2020-2021 o'quv yili sovrindorlari 405-arxitektura guruhi talabasi Agamyana Sabrina Yurevna va 405- Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish guruhi talabasi Hamzaeva Charos Hamza qizi hamda Islom Karimov Davlat stipendiyasi sovrindori 403-arxitektura guruhi talabasi Alijanova Matluba Shakirjon qizini institut Kengashida, talabalar va keng jamoatchilik orasida tanishtirish ishlari ta'minlansin.
4. Institut devonxonasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 21 yanvardagi 37-sonli buyrug'iga muvofiq tuzilgan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni saralash bo'yicha tanlov komissiyasining 2021

yil 1 fevraldagi bayonnomasiga asosan iqtidorli talabalarga «2020/2021 o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari (Beruniy, Islom Karimov) tayinlash to‘g‘risida”gi 56-sonli buyrug‘i hamda mazkur buyruq nusxalarini barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlariga ma’lumot uchun o‘z muddatida yetkazish vazifasi yuklatilsin

5. Mazkur buyruqning ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor E.X.Isakov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Buyruq loyiha.

Fakultet dekani talabalarni buyruq bilan tanishtirsin.

Buyruq barchaga ma’lumot uchun e’lon qilinsin.

